



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025-yil 10-iyun, № 117 (9012)


Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



SLOVAKIYA — EVROPA ITTIFOQIDA O'ZBEKISTONNING NAVBATDAGI STRATEGIK SHERIGI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Slovakiya Respublikasi Bosh vaziri Robert Fitso rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'lib turibdi.



9-iyun kuni Ko'ksaroy qarorgohida Slovakiya Respublikasi Bosh vaziri Robert Fitsoni rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi.

Qarorgoh oldidagi maydonda faxriy qorovul saf tortdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oliy martabali mehmonni samimiy qarshi olib, shohsupaga taklif etdi.

Harbiy orkestr ijrosida O'zbekiston va Slovakiya davlat madhiyalari yangradi. Yetakchilar faxriy qorovul safi oldidan o'tib, rasmiy delegatsiyalar a'zolarini qutladilar.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Slovakiya Respublikasi Bosh vaziri Robert Fitsoning muzokaralari bo'lib o'tdi.

O'zbekiston va Slovakiya o'rtasidagi amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Qayd etish lozim, O'zbekiston tashqi siyosati strategiyasining faollashuvi va Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyoga qiziqishi ortib borayotgani fonida rasmiy Toshkent va Bratislava o'rtasidagi munosabatlar yangicha sur'at oldi. Turli sohalarida hamkorlik jadal rivojlanmoqda.

Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari ushbu tashrif ko'p qirrali O'zbekiston — Slovakiya munosabatlari tarixida sifat jihatdan yangi bosqichni boshlab berishini alohida ta'kidladi.

Hamkorlik barcha yo'nalishda jadal rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tashqi

ishlar vazirliklari darajasida konstruktiv siyosiy muloqotlar yo'lga qo'yildi, ishbiarmonlik va gumanitar almashinuvlar faollashdi.

Tovar ayirboshlash ortib bormoqda. May oyida Hukumatlararo komissiyaning birinchi yig'ilishi samarali o'tkazildi. Kooperatsiyaning qator yangi yo'nalishlari va loyihalari ustida ish olib borilmoqda.

Zamonaviy tahdidlar va oldindan aytib bo'lmaydigan xalqaro vaziyatni hisobga olib, tashqi siyosiy idoralar, shu jumladan, Yevropa institutlari bilan sheriklik doirasida tizimli hamkorlik qilish, muvofiqlashtirish va qo'llab-quvvatlash muhimligi qayd etildi.

Tovar ayirboshlashni ko'paytirish, eng avvalo, o'zaro yetkazib berilayotgan

mahsulot turlari kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekistondan to'qimachilik, qishloq xo'jaligi, elektrotexnika, kimyo mahsulotlari, polimerlar, Slovakiyadan esa kauchuk, avtomobil qismlari, farmatsevtika va boshqa sanoat tovarlarini yetkazib berish shular jumlasidan.

Texnik jihatdan tartibga solish va metrologiya sohalarida imzolangan bitimlarni amalga oshirish doirasida texnik to'siqlarni bartaraf etish va kvant etaloni laboratoriyasini ishga tushirish muhimligi qayd etildi.

Slovakiyaning yetakchi kompaniyalari bilan sanoat kooperatsiyasi bo'yicha keng ko'lami dasturini tayyorlash, jumladan, agrosanoat majmui, avtomobillar uchun butlovchi

qismlarni mahalliyashtirish, farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish, "yashil" energetika va turizm loyihalarini amalga oshirish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Raqamli yechimlarni joriy etish va startap investitsiyalar sohasida katta imkoniyatlar mavjud. Shu ma'noda, IT startaplarini akseleratsiya qilish bo'yicha qo'shma venchur fondini tashkil etish masalasi ko'rib chiqildi.

Shuningdek, qo'shma loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun mavjud moliyaviy vositalardan keng foydalanish taklif etildi.

Gumanitar sohada ta'lim va akademik almashinuvni rivojlantirishdan ikki tomon ham manfaatdor ekani tasdiqlandi. Qo'shma tadqiqot dasturlarini, shu jumladan, Bratislavadagi Komenskiy universiteti ishtirokida yo'lga qo'yish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Tomonlar o'zaro ko'rgazmalar, kino namoyishlari, konsertlar, shuningdek, muzey ishi sohasidagi loyihalarni o'tkazishni nazarda tutuvchi Madaniyat sohasida hamkorlik dasturini qayd qilishga kelishib otilar.

Tashkilashtirilgan mehnat migratsiyasi masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Slovakiya tomoni ushbu sohada tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yishdan manfaatdor ekani ta'kidlandi.

Xalqaro ahamiyatga molik masalalar, jumladan, ko'p tomonlama maydonlarda o'zaro qo'llab-quvvatlash yuzasidan ham fikr almashildi.

Qabul qilingan qaror va kelishuvlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida ikki mamlakat hukumatlari tomonidan keng qamrovli "Yo'l xaritasi" qabul qilinishi haqida kelishib olini.

Toshkent shahrida bo'lib o'tgan muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

va Slovakiya Respublikasi Bosh vaziri Robert Fitso Strategik sheriklik munosabatlarini o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiyani imzoladilar.

Yetakchilar huzurida ikki tomonlama hujjatlar, xususan:

- diplomatik kadrlar tayyorlash to'g'risida;
- qishloq xo'jaligi sohasidagi hamkorlik to'g'risida;
- standartlashtirish, metrologiya va tovarlarning muvofiqligini baholash sohasidagi hamkorlik to'g'risida;
- energetika bozorlarini tartibga solish sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi bitimlar;
- 2025-2026-yillarga mo'ljallangan tashqi ishlar vazirliklari o'rtasidagi hamkorlik dasturi;
- 2025-2026-yillarga mo'ljallangan standartlashtirish sohasidagi hamkorlik dasturi almashildi.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Slovakiya Bosh vaziri Robert Fitso Faxriy mehmonlar xiyobonida birgalikda daraxt ekdilar.

Marosim ikki mamlakat xalqlari o'rtasida do'stlik va o'zaro anglashuv mustahkamlanib borayotgani, O'zbekiston — Slovakiya munosabatlari rivojida yangi — strategik sheriklik bosqichi boshlanganining ramzi bo'ldi.

Shu kuni oliy martabali mehmon "Yangi O'zbekiston" bog'iga tashrif buyurib, Mustaqillik monumenti poyiga gul qo'ydi.

Majmua bilan qisqacha tanishuv asnosida Slovakiya delegatsiyasi vakillariga mazkur ansambli mazmuni va me'moriy yechimlari haqida ma'lumot berildi.

Slovakiya Respublikasi Bosh vaziri Robert Fitsoning O'zbekistonda rasmiy tashrifi davom etmoqda.

Ziyodulla JONIBEKOV,
O'ZA muxbiri.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

HAMKORLIKNING USTUVOR YO'NALISHLARI BELGILAB OLINDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan BRIKS Yangi taraqqiyot banki prezidenti Dilma Rusefni qabul qildi.

Ushbu ko'p tomonlama moliyaviy institut bilan amaliy hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

O'tgan yil oktyabr oyidagi BRIKS sammiti doirasida erishilgan kelishuvlar izchil amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Xususan, banking Boshqaruvchilar kengashi tomonidan O'zbekiston Yangi taraqqiyot bankiga a'zo bo'lishiga prinsipial rozilik berildi. Umumiy qiymati 5 milliard dollarlik birinchi navbatdagi qo'shma loyihalar dasturi shakllantirildi.

Davlatimiz rahbari irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish, tog'-kon sanoatini rivojlantirish, xususiy sektorni moliyalashtirish, ta'lim va infratuzilma sohalarida davlat-xususiy sheriklikni ilgari surish kabi ustuvor yo'nalishlarda loyihalarni tez fursatda tayyorlash va amalga oshirish muhimligini ta'kidladi.

Shuningdek, yirik mintaqaviy infratuzilma loyihalari qo'llab-quvvatlandi.

ISTIQBOLLI LOYIHALAR BIRGALIKDA AMALGA OSHIRILADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Toshkent xalqaro investitsiya forumi arafasida Amerika Qo'shma Shtatlarining yetakchi kompaniyalari delegatsiyasi bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuvda AQSH Davlat kotibi yordamchisi Erik Meyer, Amerika — O'zbekiston savdo palatasi raisi Kerolin Lemm, Xalqaro taraqqiyot moliya korporatsiyasi vitse-prezidenti Brez Betani, shuningdek, "Boeing", "FLS", "Visa", "NASDAQ", "Air Products", "Franklin Templeton", "Morgan Stanley", "Coca-Cola" va boshqa ko'plab korporatsiyalar rahbarlari ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari ushbu uchrashuv Amerika biznesida O'zbekistondagi faoliyatini kengaytirishga qiziqish ortib borayotganidan dalolat ekani katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

Investitsion va innovatsion hamkorlik istiqbollari, strategik ahamiyatga ega materiallarni o'zlashtirish va qayta ishlab, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar, transport va energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, qishloq xo'jaligi, turizm va boshqa sohalarida aniq loyihalarni ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

AQSHning yetakchi kompaniyalari rahbarlari investirlarning samarali faoliyatiga yaratilayotgan qulay sharoitlar uchun O'zbekiston Prezidentiga minnatdorlik bildirib, o'zlarining aniq taklif va rejalarni bayon qildi.

O'ZA.

BOLGARIYA RESPUBLIKASI PREZIDENTI O'ZBEKISTONGA KELDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Bolgariya Respublikasi Prezidenti Rumen Radev 9-iyun kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi.

Toshkent shahri xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov va boshqa rasmiylar kutib oldi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 10-iyun kuni bo'lib o'tadi. Tashrif dasturiga muvofiq ikki mamlakat yetakchilarining muzokaralari, rasmiy va ishbiarmonlik tadbirlari o'tkazilishi, qator ikki tomonlama bitimlar imzolaniishi rejalashtirilgan.

O'zbekiston va Bolgariya Prezidentlari o'zaro manfaatli munosabatlarni yanada rivojlantirish, shu jumladan, tovar ayirboshlash hajmini oshirish, agrosanoat majmui, farmatsevtika tarmog'i, konchilik, raqamlashtirish sohalarida kooperatsiyani yo'lga qo'yish, turizm va madaniy-gumanitar almashinuvlarni kengaytirish masalalarini ko'rib chiqadilar.

Bolgariya Prezidenti IV Toshkent xalqaro investitsiya forumida ham ishtirok etadi.

I. AVVALBOYEV,
O'ZA muxbiri.

Iftixor

MATONAT MAYDONIDA

O'zbek futbolchilarining tarixiy g'alabasiga bag'ishlanadi

Sirojiddin SAYYID,
O'zbekiston xalq shoiri,
Oliy Majlis Senati a'zosi

Bu g'alaba tegishlidir tarixlar, asrlarga, Ham bugungi avlodlar, ham kelajak nasllarga. Bir millatning uch ming yillik shashti unda mujassam, Bu G'alaba muhtashamdir, bu G'alaba — muazzam.

Yetti yoshdan yetmishgacha — ko'rdi bor yoshu qari, O'ttiz sakkiz millyonli el bir bo'lib ko'rdi bari. Oybaldoqli kelinchaklar, qizg'aldoqlar ko'rdilar, Beshiklarda ming-ming uyg'oq chaqaloqlar ko'rdilar.

Amirliklar diyorida o'zbeklarning bayrami, Ming yillarga qurbonlikdir bu bayramning har dami. Shunday oliy lahzalarda xalq qudratga aylangay, O'ttiz sakkiz millyon yurak bir millatga aylangay.

Ona xalqim, bor kechmishim — sinov, imtihonlaring: Egatlarda qolib ketti ne-ne chempionlaring.

Men futbolchi bo'lolmadim, Vaqt bo'ldi hakamim, Futbolkamda qolib ketdi o'n birinchi raqamim.

Bu G'alaba osmonlardan shundoq tushib kelmadi, Elning orzu-armonlari, zahmati bu, mehnati. Xayr, Abu Dabi, xush qol! Senga ham "Gud bay", Dubai! Ona yurtim, tuprog'ingga sajda aylab, bir o'pay!

Futbol emas, asli Vatan darvozasi erur bu, Uni butun saqlamoqlik sharaf erur, g'urur bu. Qancha zug'um o'tkazmasin raqiblar iskanjasi, Sherbachchaning panjasiday — O'tkirbekning panjasi.

Millyon-millyon eldoshlaring qo'llab turdi gulduros: Abbos, faqat oldga bosgil! Faqat olg'a bos, Abbos! Shijoatu shiddatida Boychibor, G'irotni ko'r, Bu maydonda Alpomishday Eldor Shomurodni ko'r.

Manov o'g'lon Abduqodir — Qodiriylar naslidan.

Otabekdir buning ismi, nasli ma'lum aslidan. G'irrom dunyo, ko'zyoshlarin ko'r Temur Kapatzeni, Bosimlarning bosilmadi hargiz, kasofat seni.

Ezgulik va yovuzlikning azal harbu zarbasin, Yoki yoddan chiqardingmi Temur bobo zarbasin? Ko'rib turdim men, ilk bora qomatlarim dol qolding, O'n bir qalamqosh bolamning qarshisida lol qolding.

Dillarida — ona Vatan ori, ota makoni, Bu jasorat maydonidir, bu matonat maydoni. O'ylamangkim yo'lingizda bir xavf, ya'ni Qatar bor, Hali qancha bosim, yana qancha xavfu xatar bor.

Yer sharini bir koptokday topshirmoqchi bo'lganlar, Koptok qilib bir-biriga oshirmoqchi bo'lganlar, Bilarmisiz, kim ne eksa, hosil ham shundoq bo'lur? Chin G'alaba bundoq bo'lur, G'alaba bundoq bo'lur.

Yangi O'zbekiston bugun — olam xayollaridir, Bu Uyg'onish zamonining jonbaxsh shamollaridir. O'n bir o'zbek bolasi bu — qo'shu ko'zdek bolasi, Qo'sh qit'ani bir qalqitdi o'n bir o'zbek bolasi.

Ko'zing qarosiningmu bu, yo qoshlaring "yo'si yo? Bu sening ham G'alabangdir, ey Markaziy Osiyo! Tomog'imdan o'tmas sizsiz damlagan bayram oshim, Qirg'iz, qozoq, turkman, tojik, qo'llab turding, qardoshim!

Bu yo'lda biz birga chekdik qancha ranju zahmatlar, Bizga doim do'st, xayrixoh FIFAgam rahmatlar. Bir millatning uch ming yillik shashti shunda mujassam: Bu G'alaba muhtashamdir, bu G'alaba — muazzam!

Millat uchun jonin tikkan zotlar toki o'rtangay — Ona Vatan, ota makon sharafarga burkangay. Shunday ulug' zafarlarda O'zing qo'lla, yo Rabbii, Millat o'zi Rahnamodir. Rahnamo — Bosh murabbiy!

Abu Dabi. 2025-yil, 5-iyun.

PREZIDENT G'ALABALARI...

Millatga qaytarilgan g'oliblik, mardlik, jasurlik, daxldorlik tuyg'ulari

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning futbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zolariga tabrigini o'qib g'oyatda ta'sirlanDIM. Ayniqsa, samimiy qutlovning "Qadrli farzandlarim!", deb boshlanishi e'tiborimni o'ziga tortdi.

O'sha kunlarda nafaqat vatandoshlarimiz, balki dunyo nigohi O'zbekiston futbolchilariga qaratiladi.

Munosabat

Mamlakatimiz rahbari haqli ravishda ta'kidlaganidek: "Aminman, bu tarixiy yutuq xalqimizni ezgu maqsadlar yo'lida yanada birlashtiradi, ming-minglab yoshlarimiz uchun ilhom manbaiga, ibrat timsoliga aylanadi, Yangi O'zbekistonning xalqaro obro'-e'tiborini yanada oshirishga xizmat qiladi".

Millat birlashtirish – kuch, o'zini anglasa – qudrat, tarixini bilsa – mag'rur, Vatani tanigan avlodlar paydo bo'ladi.

Bu haqiqatni 17 yoshida Vatani sharafini himoya qilgan, Osiyoda tengsizligini namoyon etgan farzandlarimizning jasorati ham tasdiqlagan edi. Ular yuksak sovrin – Osiyo kubogini qo'lga kiritganida qalbimiz faxr-iftixorga to'ldi, boshimiz ko'kka yetdi.

Bu Yangi O'zbekiston Me'mori – Shavkat Mirziyoyev tomonidan e'zozlangan, tarbiyalangan nihollarning ilk totli mevasi edi. Bu avlodni qaytaradigan kuch, yo'lga chiqadigan mard butun Osiyoda topilmadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 17 yoshli farzandlari Osiyoda tengsiz ekanliklarini namoyish qildi.

O'sha kunlarda xayolimdan bir fikr o'tdi: bunday jasoratga, matonatga faqat Vatani taniganlar ega bo'ladi.

17 yoshida Vatanni tanish baxtiga muayassar bo'lgan bolalarga havasim keldi.

O'zbekistonda bugun Vatani tuyg'usini anglab yetgan avlodlar shakllanmoqda, tarbiyalanmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev har gal ularga "farzandim", deb murojaat qiladi.

Prezidentdan "farzandim" so'zini eshitish eng katta baxt bo'lsa kerak.

Millatni bir maqsad yo'lida birlashtirish ulkan mashaqqat.

Prezidentimiz millatga aynan mana shu tuyg'uni anglatdi. Bu g'alabalar – Prezident g'alabalari.

"Parij – 2024" Olimpiadasida O'zbekiston erishgan yutuqlar o'zining salmog'i, mavqei bilan rekord darajaga yetgandi.

To'g'risini tan olish kerakiki, biz yillar davomida millat, mamlakat manfaati nima ekanini anglamadik, bu tuyg'ulardan ancha uzoqda edik. Uzoqlashtirilgandik. Prezident xalq bilan birgalikda quvonsa – mo'jiza sodir bo'larkan.



Xalq o'z ortida Prezident turganligini bilishi, anglashi juda yuksak tuyg'u ekan. Bugun Prezident xalqimizga mana shu tuyg'ularni bera oldi. Butun xalqni bir maqsad yo'lida birlashtirdi.

Fikrimcha, sportdagi barcha g'alabalar zamirida mana shu haqiqat mujassamlashgan.

G'alaba ustiga g'alaba, yutuq ortidan yutuq...

Xalq g'alaba nashidasi nima ekanligini anglab yetdi. Shaxsan Prezident bu g'alabalarni keng nishonlayotgani, xalq bilan birga quvonayotgani sportchilarimiz kuchsiz qo'shmoqda.

Olimpiadada ilk oltin medalni qo'lga kiritgan Diyora Keldiyorovning onasi Dilorom Sharipova shunday yozadi: "Qizim Diyora Keldiyorova "Parij – 2024" Olimpiadasida oltin medalini qo'lga kiritdi. Diyorani g'alaba bilan birinchi bo'lib Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tabrikledi. Yurt otasi tungi vaqt bo'lishiga qaramasdan qizimning

final uchrashuvini ko'rib, muborakbod etdi.

Prezidentimiz Diyora bilan farzandim, qizim deb gaplashganida, "Ota-onangni mening nomidan tabrikla" deganida ko'zimga yosh keldi.

Ona uchun bundan ortiq baxt bormi?!

Qizimning yutuq'undan bir quvongan bo'lsam, Prezidentimiz g'amxo'rligidan ming quvondim. Boshim osmonga yetdi.

Prezidentimiz bilan faxrlanaman..."

Sport g'alabalari xalqning ruhini ko'taradi. Xalqda kurashuvchanlik, milliy g'urur, yovqurlik, jasorat, matonat tuyg'ularini uyg'otadi. Hech bir soha millatni, mamlakatni sportchilik tez tanitmaydi.

2016-yildan boshlab sport sohasida O'zbekiston erishgan yutuqlar barchani, hatto xalqaro ekspertlarni ham hayratga solmoqda.

Prezidentning sportga qiziqishi, sportchini qadrlashi, trener va ustoz-murabbiylarni ardoqlashi, rag'batlantirishi juda katta yutuqlarga sabab bo'ldi.

Millatda g'oliblik tuyg'usi paydo bo'ldi. Mana shu maqsad barchani o'z atrofida jamladi.

Bugun O'zbekiston sport sohasida nafaqat Markaziy Osiyo yoki butun Osiyoda, balki jahonda o'z so'zini ayttirib, Bunga tarixan juda qisqa – 9 yilda erishildi.

Prezidentdan namuna olgan xalq

sportchilarni yakkilik bilan qo'llab-quvvatlamoqda, ulami yurt qahramonlari deb e'lon qilmoqda, boshiga ko'tarmoqda, faxrlanmoqda.

Jahon arenalarda O'zbekiston nomi yangramoqda. O'zbekiston bayrog'i ko'tarilmoqda. O'zbekiston madhiyasi taralmoqda. Bu jahon sportiga shu paytgacha ma'lum bo'lmagan yangi ruh, yangi kuch, toza qon, Yangi O'zbekiston kirib kelganligini ko'rsatadi, anglatadi.

Ya'ni qirg'izistonlik deputatning so'zlarini eshitib qoldim: "O'zbekistonda keyingi 10 yilda shunchalik ko'p sport inshootlari qurildi, bugun O'zbekiston juda ko'plab xalqaro sport musobaqalariga mezbonlik qilmoqda. O'zbekistonlik sportchilar jahon arenalarda birinchi bo'lib o'zlarini bemasdan hisobsiz medallarni qo'lga kiritmoqdalar..."

Bu e'tirof zamirida Prezidentimizning mashaqqatli mehnatlari, e'tibor va g'amxo'rliklari bor.

2026-yilda AQSH, Meksika va Kanada davlatlarida bo'lib o'tadigan jahon chempionatida futbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi butun Markaziy Osiyo mintaqasining birinchi va yagona vakili bo'lishdek yuksak sharafiga muayassar bo'ldi.

O'zbekiston futbol bo'yicha I asrdan ortiq tarix davomida bunday martabaga birinchi mara boshladi.

Xalqimiz quvonchining chegarasi yo'q. Bu biz kutgan g'alaba edi. Bu

bigza o'zini kuttirgan g'alaba edi. Bu bizni sog'itirgan g'alaba edi. Biz bu g'alabaga Prezidentimizning ishonchi, e'tibori, mehri tufayli erishdik.

Umummaqsad nima? Umumqudratchi, umumshodlik, umumbaxt-chi?

Millat dastlab mustabid tuzum davri va mustaqillikning chorak asrida birgalikda kurashishdan, hamfikr bo'lishdan mahrum qilingan edi. Hatto birgalikda quvonish nima ekanini ham unutilib qo'ygandik.

"Naqadar baxtsizdir, naqadar go'ldir yagona qo'shig'i bo'lmagan xalqlar..."

O'zbek shoirlaridan biri Shavkat Rahmonning ushbu satrlarida olam-olam ma'no mujassam.

Nafaqat yagona qo'shig'i, balki yagona maqsadi bo'lmagan xalq ham g'olib bo'lmaydi. Kurashlarda yengolmaydi. Umumquvonch tuyg'usidan bebahra o'tadi.

Futbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi erishgan yutuqning salmog'i baland. Endi milliardlab futbol ishqibozlari nigohida O'zbekiston namoyon bo'ladi, gavdalanadi. O'zbekning shon-shuhrati yanada yuksaladi.

Olg'a, O'zbekiston!

Rustam XOLMURODOV, Samarqand davlat universiteti rektori, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, Oliy Majlis Senati a'zosi.

O'ZBEKISTON – AQSH BIZNES FORUMI

Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev Xalqaro investitsiya forumi doirasida o'tkazilgan O'zbekiston – AQSH biznes forumida ishtirok etdi.

Tadbir

Tadbir O'zbekiston Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan "Amerika – O'zbekiston" savdo palatasi bilan hamkorlikda tashkil qilindi.

Unda ikki mamlakat ishbilanmonlari va davlat idoralarining 150 dan ortiq vakillari, jumladan, sanoat, raqamlashtirish, qishloq xo'jaligi, energetika, moliya va sog'liqni saqlash kabi muhim tarmoqlarning 100 ga yaqin yetakchi kompaniyalari ishtirok etdi.

Forum dasturidan O'zbekistonning sarmoyaviy salohiyati taqdimoti, shuningdek, "G2B" formatidagi ikki tomonlama uchrashuvlar o'rin oldi. Ishtirokchilar savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, qo'shma loyihalarni

amalga oshirish va institutsional hamkorlikni chuqurlashtirish istiqbollari muhokama qilindi.

Sodiq Safoyev forumda so'zga chiqib, so'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar jamiyatning yangilanishiga xizmat qilayotganini, mamlakatimiz har tomonlama siyosiy va iqtisodiy modernizatsiya qilishga qaratilgan keng ko'lami o'zgarishlar yo'lidan dadil borayotganini ta'kidladi.

Umuman, ushbu biznes forumi ikki mamlakat o'rtasidagi strategik sheriklikni yanada mustahkamlash yo'lidagi muhim qadam bo'lib, O'zbekiston AQSHning Markaziy Osiyodagi ishonchli iqtisodiy va sarmoyaviy hamkori ekanini yana bir bor tasdiqladi.

"Xalq so'zi".

Yevrosiyoda pragmatizm, o'zaro manfaatdorlik va real harakatlarga asoslangan tamoyillar shakllanmoqda

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Slovakiya Bosh vaziri Robert Fitsoning 9-iyun kuni Ko'ksaroy qarorgohida bo'lib o'tgan muzokaralari xorijiy ekspertlar hamjamiyati tomonidan ikki tomonlama munosabatlardagi muhim voqea sifatida baholanmoqda.

Ekspertlarning ta'kidiga ko'ra mazkur tashrif rasmiy Toshkent va Bratislava o'rtasidagi hamkorlikning yangi bosqichini boshlash uchun keng imkoniyatlar ochadi. Tashrif, shuningdek, an'anaviy formatlardan tashqari qisqirgan hamda savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, ilmiy, ta'lim va texnologik kabi istiqbolli yo'nalishlarni qamrab oldi.

Kuzatuvchilar Slovakiya kabi davlatlar bilan muloqot faollashgani O'zbekistonning tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalarini diversifikatsiya qilish borasidagi izchil siyosatidan dalolat ekanini ta'kidlamoqda. O'zgaruvchan xalqaro muhit sharoitida O'zbekiston Yevropa davlatlari bilan ko'p vektorli hamkorlikni yo'lga qo'yimoqda, yangi bozorlarda o'z ishtirokini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni jalb etish hamda ishonchli va ochiq sherik sifatidagi mavqei mustahkamlashga intilmoqda.

Dunyo nigohi

Antonio ALONSO, San-Pablo universiteti Ijtimoiy tadqiqotlar instituti professori, Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha ekspert (Ispaniya):

– 9-iyun kuni

Ko'ksaroy qarorgohida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Slovakiya Bosh vaziri Robert Fitsoning o'rtasida bo'lib o'tgan muzokaralar ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro manfaatli va ko'p qirrali sheriklikni rivojlantirish yo'lidagi muhim qadamdir.

Eng avvalo, erishilgan kelishuvlarning strategik teranligini ta'kidlash joiz. Hamkorlik formati haqiqiy amaliy salohiyatga ega aniq sohalarni qamrab oladi. Iqtisodiyot va energetika tadbirlari madaniyat hamda akademik almashinuvlarga o'zaro muvofiqlashtirish alohida e'tibor qaratilmoqda.

Akademik nuqtaiy nazaridan, ta'lim va ilmiy muloqotni kengaytirishga e'tibor qaratishni muhim deb bilaman. Bratislavadagi Komenskiy universiteti ishloqida qo'shma tadqiqot dasturlarini yo'lga qo'yish haqidagi kelishuv shunchaki ramziy ishora emas, balki ilmiy hamkorlik uchun yangi uflarni ochadigan strategik qadamdir. O'zaro hamkorlikning bunday formati universitetlarni xalqarolashtirishga, tadqiqot vakolatlarini mustahkamlashga va qo'shma ta'lim standartlarini shakllantirishga yordam berishi mumkin.

Ayniqsa, IT startaplarni qo'llab-quvvatlash uchun venchur fondini yaratish tashabbusi g'oyat ahamiyatlidir. Bu iqtisodiyotning zamonaviy raqamli transformatsiyasi mantig'iga to'g'ri keladi va amaliy texnologiyalar va innovatsiyalar sohasida ishlayotgan yosh tadbirkorlar va tadqiqot guruhlari uchun ham qiziqish uyg'otadi.

Ishonchim komilki, ushbu tashrif nafaqat O'zbekiston va Slovakiya o'rtasidagi strategik sheriklik, balki xalqaro hamkorlikka yondashuvlarni sifat jihatidan yangilash, yanada mazmunli qilish, maqsaddi va natijaga yo'naltirilgan munosabatlarga asos soldi.

Hikmet EREN, "EkoAvrasya" Yevrosiyoda iqtisodiy aloqalar jamg'armasi boshqaruvi raisi (Turkiya):

– Tashrif va oliy darajadagi muzokaralar nafaqat rasmiy Toshkent va Bratislavaning ikki tomonlama kun tartibi, balki butun Yevrosiyoda uchun muhim voqea bo'ldi. Zero, ochiqlik, barqaror rivojlanish

va xalqaro hamkorlik yo'lidan ishonch bilan borayotgan O'zbekiston YEI davlatlari uchun muhim hamkor hisoblanadi.

Global muammolar, beqarorlik va iqtisodiy o'zgarishlar fonida O'zbekiston – Slovakiya munosabatlarning yangi bosqichi shakllanayotgani o'z vaqtida va uzoqni ko'zlagan qadam bo'lib, siyosiy yetuklik hamda strategik tafakkurni tasdiqlaydi.

O'zbekiston kuchli Yevrosiyoda ishlab chiqarish va logistika makonini barpo etishga katta ahamiyat qaratadi. Xususan, Slovakiya kompaniyalari ishloqida qo'shma sanoat kooperatsiyasi dasturini yaratish tashabbusi Sharq va G'arb o'rtasidagi barqaror iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish maqsadlariga to'liq mos keladi.

Ta'lim almashinuvi, qo'shma ilmiy dasturlarning yo'lga qo'yilgani, O'zbekiston va Slovakiya o'rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotgani ham tashiga sazovor.


Turkiya ekspertlar hamjamiyati bu qadamlarni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning sivilizatsiyalararo muloqotni rivojlantirish, xalqlarni yaqinlashtirish va o'zaro hamjihatlikni mustahkamlashga qo'shayotgan hisssasi sifatida ko'rmoqda.

Roy Entoni ROJERS, Malaya universiteti xalqaro va strategik tadqiqotlar kafedrasini professori (Malayziya):

– Tashrif Sharqiy Yevropa davlatlarining Markaziy Osiyoning jadal isloh qilinayotgan bozoriga qiziqish ortib borayotganining ko'rsatkichi sifatida baholanishini kerak.

Kuala-Lumpur nuqtayi nazaridan bu Toshkent an'anaviy hamkorlar "perimetridan tashqari" chiqish va Yevropa Ittifoqidagi iqtisodiy va siyosiy aloqalarni diversifikatsiya qilishga erishayotganining yaqqol tasdiqidir. Masalan, "Bosh vazir tashrif + investitsiya forumi" formati bir vaqtning o'zida O'zbekiston rahbariyati tomonidan tizimli ravishda ilgari surilayotgan xususiy lashtirish va investitsiya dasturini siyosiy qo'llab-quvvatlashdan manfaatdorlikni namoyish etadi.

Savdo-investitsiya bloki, qishloq xo'jaligi texnologiyalari, mashinasozlik va "yashil" energiya



bo'yicha muzokaralarda Slovakiyaning e'tibori O'zbekistonning jadal sanoatlashtirish va "yashil" burilish bo'yicha yo'nalishiga, shuningdek, ushbu mamlakatning yangi savdo bozorlari va xomashyo diversifikatsiyasiga bo'lgan ehtiyojiga tabiiy ravishda mos keladi.

Yana bir yangi yo'nalish – uyushgan mehnat migratsiyasi. Slovakiyadagi ishchi kuchi yetishmovchiligi Toshkentga YEIga malakali kadrlarni jo'natish, buning evaziga valiyatdan tushgan tushumlar va texnologik o'qitish bo'yicha milliy dasturlarni ilgari surish imkonini beradi.

Bosh vazir Robert Fitsoning IV Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi ishtiroki imkoniyatlarni kengaytiradi. Shuningdek, imzolangan salmoqli bitimlar va "yo'l xaritalari" Slovakiyani o'zbek biznesi uchun Vishegrad o'rtligi yoki kengroq aytganda, YEI bozorlarga kirish uchun muhim darvozaga aylantiradi.

Tazin AXTAR, "Pakistan in the world" gazetasi bosh muharriri (Pokiston):

– Toshkentdagi muzokaralar chog'ida tomonlar umumiy niyatlardan uzoq muddatli hamkorlik arxitekturasini barpo etishga o'tgani alohida e'tiborga molik. Gap keng ko'lami Sanoat kooperatsiyasi dasturini tayyorlash, kvant standart laboratoriyasini ishga tushirish, IT startaplari bo'yicha qo'shma venchur fondini yaratish va imzolangan kelishuvlarni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xarita" sini kelishish haqida bormoqda.

Slovakiya O'zbekistonni nafaqat eksport bozori, balki butun Yevrosiyoda qit'asiga chiqish imkoniyatiga ega ishlab chiqarish markazi sifatida ko'rib, yetuk yondashuvni namoyish etayotir. Bu, ayniqsa, ta'minot zanjirlarini qayta ko'rib chiqish va global beqarorlik fonida juda dolzarbdir.

Tashrif, shuningdek, gumanitar yo'l "qattiq" kun tartibini mustahkamlashga qanday xizmat qilishi mumkinligini ko'rsatdi. Akademik almashinuvlar to'rtinchi bosqichda, Slovakiya universitetlari ishloqida ilmiy tadqiqot dasturlarini yo'lga qo'yish, madaniy loyihalarni va uyushgan mehnat migratsiyasi bo'yicha muhokamalar barqaror hamda o'zaro hurmatga asoslangan muloqot uchun sharoit yaratadi.

Robert Fitsoning tashrif nafaqat O'zbekiston – Slovakiya munosabatlari kontekstida muhim ahamiyatga ega, balki kengroq tendensiya – Yevrosiyoda pragmatizm, o'zaro manfaatdorlik va real harakatlarga tayyorlik asosidagi o'zaro hamkorlikning yangi uflarini shakllantirish ramzi.

"Dunyo" AA.

XALQLAR O'RTASIDAGI SAMIMIY MUNOSABATNING YORQIN KO'RINISHI

Yangi O'zbekiston dunyo xaritasida o'z o'rnini yuqori pog'onalariga ko'tarib nafaqat ichki islohotlar, balki tashqi siyosatda ham yangi bosqichlarga o'tmoqda. Biz guvoh bo'layotgan jarayonlar – mamlakatimiz tashqi munosabatlardagi faollashuv, yangicha tashabbus va chuqur hamkorlik modellari O'zbekistonning global sahnadagi rolini mustahkamlayapti. Bu faqat davlatlar o'rtasidagi aloqalar emas, xalqlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va do'stlikni kuchaytirish yo'lidagi harakatlardir.

Aks sado

So'nggi yillarda O'zbekiston tashqi siyosatida tamoman yangi yondashuvni namoyon etmoqda – u muloqotga ochiq, manfaatli hamkorlikka intiluvchi va tinchlikparvar siyosatga asoslangan. Shu bois bugun O'zbekiston faqat mintaqaviy emas, balki global miqyosda ham ishonchli va barqaror sherik sifatida e'tirof etilmoqda.

Kuni kecha Slovakiya Respublikasi Bosh vaziri Robert Fitsoning mamlakatimizga rasmiy tashrif ana shu amaliy hamkorlikning yana bir muhim va ramziy bosqichi bo'ldi. Bu tashrif nafaqat rasmiy kelishuvlar, balki xalqlar o'rtasidagi samimiy munosabatning yorqin ko'rinishi bo'ldi, desak, yangilashmaymiz. Yangi O'zbekiston bog'idagi mustaqillik monumentiga gul qo'yish marosimi, madaniy almashinuv va tarixiy ramzlarga hurmat – bu yuksak e'tibor va ehtirom timsoli.

Slovakiya delegatsiyasi bilan o'tkazilgan muzokaralar davomida iqtisodiy, sanoat, ta'lim va madaniyat sohalarida bir qator muhim kelishuvlarga erishildi.

Qayd etish kerakiki, O'zbekistondagi qator Slovakiya ishtirokidagi korxonada, investitsion loyihalar va ta'lim sohalarida almashinuvlar ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni yanada chuqurlashtirishga xizmat qildi. So'nggi o'n yil ichida o'zaro savdo aylanmasi 4 barobarga oshgani bu munosabatlarning faqat diplomatik emas, balki iqtisodiy asoslarga ham tayanib borayotganini ko'rsatadi. Yangi imzolangan kelishuvlar esa bu ko'rsatkichni yanada oshirishga xizmat qiladi.

Slovakiya – Yevropaning zamonaviy industrial markazlaridan biri sifatida, ayniqsa, avtomobilsozlikda (avtomobil va aviatsiya sanoati) yetakchi davlatlardan hisoblanadi. Uning bu sohada yuqori texnologik yutuqlari va ishlab chiqarish salohiyati O'zbekiston uchun ulkan imkoniyatlar eishigini ochadi.

Turizm ham muayyan natijalarga erishilgan.

Jumladan, Slovakiya fuqarolari uchun vizasiz rejim joriy etilgandan so'ng yurtimizga tashrif buyuruvchi sayyohlar soni ortib bormoqda. 2023-yilda bu yurtdan 1 438 nafar sayohat kelgan bo'lsa, 2024-yilda ayni raqam 1 732 nafarga yetgan. Bu O'zbekistonning sayyohlik salohiyatini targ'ib qilish, madaniy merosini dunyoga tanitishdagi yutuqlaridandir.

Shuningdek, madaniy almashinuv, ilmiy-ta'lim loyihalari, talabalar va tadqiqotchilar uchun yaratilgan sharoitlar – ikki xalqni yaqinlashtiradigan muhim omillardir. Bugungi kunda ilm-fan, geologiya, ekologiya kabi sohalarida ham qo'shma loyihalar ro'yobga chiqarilmoqda.

Yana bir ahamiyatli jihati, mamlakatimizda investitsiya muhitining yaxshilanishi, qonunchilikdagi yengilliklar, yer resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari – bularning barchasi xorijiy investorlar uchun keng eshiklar ochmoqda. Ayniqsa, sanoat va qayta ishlash sohalaridagi hamkorlik istiqbollari katta.

Shu nuqtaiy nazaridan, O'zbekistonda o'tkazilayotgan xalqaro investitsiya forumlari nafaqat sarmoyadorlarni jalb etish, balki mamlakatimizning nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu tabiiyki, yuzlab mamlakatlarni vakillari ishtirok etayotgani, O'zbekistonning ochiq va ishonchli sherik ekanini ko'rsatadi. Yangi ishlab chiqarish maydonlari, texnologik loyihalar va eksport salohiyati – bularning barchasi mamlakat iqtisodiy istiqbollarni kengaytirayotgani bilan e'tiborga molik.

O'z navbatida, Slovakiya Respublikasi bilan munosabatlar ushbu jarayonda muvaffaqiyatli namuna bo'lib xizmat qilayotir. Bu aloqalar zamonaviy diplomatiyaning samarali natija berishi, xalqlar o'rtasidagi ziyilik muvaffaqiyatli barpo etilishining yaqqol namoyonidir.

Gulchehra TOJIBOYEVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

"Markaziy Osiyo – Hindiston" vazirlar uchrashuvi va ishbiarmonlar kengashi biznes forumida mamlakatimiz IT bozorining eksport va investitsion salohiyati namoyish etildi.

SAMARALI HUQUQIY NORMALAR VA TA'SIRCHAN MEXANIZMLAR

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari atroflicha ko'rib chiqildi.

Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

Tadbirkorlar va ishlabarmonlar harakati - O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida mas'uliyati cheklangan jamiyatlar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi o'dan muhokama qilindi.

Ushbu hujjat mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi, ularni boshqarish sohasidagi munosabatlarni hamda ishtirokchilarning o'zaro munosabatlari tartibiga solishga qaratilgan.

Loyihada jamiyat nafaqat litsenziya, balki boshqa ruxsat etuvchi hujjatlar va xabardor qilish tartibida faoliyat turlari bilan shug'ullanishi mumkinligi, shuningdek, jamiyatning filial va vakolatxonalari ochish tartiblari belgilanmoqda.

Jamiyatning affilangan shaxslari, ular bilan bitimlar tuzish, ushbu bitimlar bo'yicha nizolarni hal etish hamda jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari va jamiyat boshqaruvi organlarining fuditsiar javobgarligiga oid yangi huquqiy normalar o'z ifodasini topyapti.

qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Qonun loyihasi muhokamasida fraksiya a'zosi Muhsinjon Xolmuhamedov o'z nuqtayi nazarini bildirib, mazkur hujjat iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish, ularning hayoti va sog'ligini muhofaza etish, sifatsiz mahsulotlarni bozordan chiqarish jarayonida tadbirkorlar ishtirokini rag'batlantirish orqali samarali huquqiy mexanizmlarni shakllantirishga xizmat qilishni ta'kidladi.

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi qizg'in muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, ushbu qonun loyihasi inson uchun xavfli bo'lgan yuqumli kasalliklarning oldini olish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, unda 90 kundan ortiq muddatda chet elda bo'lib qaytgan O'zbekiston fuqarolarini hamda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun

yuvasidan bir qator savollar o'rtaga tashlandi. Jumladan, tashabbuskorlar deputat Sherzod Qulmatovning nima uchun 90 kun belgilanayotgani masalasiga izoh berarkan, bu yuqumli kasallik inson organizmidan 90 kundan so'ng o'zini namoyon qilishini qayd etdi. Eng asosiysi, chet eldan qaytgan fuqaro agar o'zining, oilasining sog'ligini o'ylasa, tezda tibbiy ko'rikdan o'tishi lozimligiga urg'u berildi.

Savol-javoblardan so'ng qonun loyihasi qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida hakamlik sudlari faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi qizg'in muhokama qilindi.

Ushbu qonun loyihasi bilan davlat organlari, tashkilotlari va muassasalari hamda davlat ishtirokidagi korxonalar,

Zuhriddin MAVLONOV, "Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi:

– Sudning mustaqilligi va sudyalarning daxlsizligini ta'minlash choralarini yanada kuchaytirishga oid qonun loyihasida nazarda tutilgan normalar sudyalarning mustaqilligini yanada kuchaytirish, ularning faoliyatiga har qanday aralashuvlarning oldini olishga qaratilganidan amaliy ahamiyatga ega.

shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hakamlik bitimi tarafdari bo'lishi mumkin emasligi belgilanmoqda.

Hakamlik sudlari tomonidan yer bilan bog'liq, bino-inshootlarga egalik huquqini belgilash hamda byudjetdan pul undirish bilan bog'liq nizolar hal etilmasligini qat'iy belgilash, byudjet intizomini mustahkamlash, mas'ul shaxslarning javobgarligini kuchaytirish nazarda tutilyapti.

Fraksiya a'zolari qonun loyihasi yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini, taklif va tavsiyalarini bildirib, unda nazarda tutilayotgan ayrim normalar bo'yicha savollar berdi. Qonun tashabbuskorlari savollar yuzasidan batafsil tushuntirish berib, mazkur hujjat hakamlik sudlari faoliyatini tashkil qilishning qonuniy asoslarini mustahkamlashga qaratilganini qayd etdi.

Yig'ilishda sudning mustaqilligi va sudyalarning daxlsizligini ta'minlash choralarini yanada kuchaytirishga oid qonun loyihasi ham muhokama markazida bo'ldi.

Unda sud binosida sudga hurmatsizlik qilganlik uchun ma'muriy

Noiba INOYATOVA, O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a'zosi:

– Inson sog'ligi uchun xavf tug'diruvchi yuqumli kasalliklar tarqalishini oldini olish, aholi salomatligini muhofaza qilish, mehnat migratsiyasi jarayonlarida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash bugungi kunda dolzarb masala. "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi bu bo'yicha ta'sirchan huquqiy mexanizmlarni shakllantirishga qaratilgan.

javobgarlik choralarini, shuningdek, sud ishlarini hal etishga aralashganlik uchun javobgarlik choralarini aniqlash nazarda tutilyapti. Ya'ni sud ishlarini hal etishga aralashish, muayyan ishni har tomonlama, to'la va xolisona ko'rib chiqishga to'sqinlik qilish yoki g'ayriqonuniy hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror chiqarilishiga erishish maqsadida sudya yoki maslahatchisiga turli shaklda qonunga xilof ravishda ta'sir o'tkazganlik uchun javobgarlik belgilanmoqda.

Munozaralar davomida fraksiya a'zolari Zuhriddin Mavlonov,



Shuhrat Yoqubov va boshqalar qonun loyihasida nazarda tutilgan normalar partiya saylovoldi dasturida belgilangan vazifalarga uyg'un va hamohang ekanini qayd etib, ushbu hujjat sudyalarning mustaqilligini kafolatlarini yanada kuchaytirish,

qonun loyihasini ham ko'rib chiqishdi. Ushbu qonun loyihasi bilan mehnat munosabatlardagi huquqiy kafolatlar, mehnat muhofazasi va ishchilarning manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan normalar nazarda tutilgan.

Deputat Dilbar Mamajonova qonun loyihasida ish vaqtidan tashqari mehnatning chegaralangan miqdori, qo'shimcha mehnat uchun haq to'lash miqdorlari bo'yicha ko'tarilgan savollarga ikkinchi o'qishgacha qanday oydinlik kiritilganini so'radi.

Mas'ullar normalarning ishchi-xodimlar manfaatlarini, qonuniy huquqlariga zid emasligini huquqiy asoslab berganidan so'ng fraksiya a'zolari tomonidan loyiha qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda aholining sanitar-epidemiologik osovishatligini ta'minlash, jumladan, aholi orasida yuqumli kasalliklar tarqalishini oldini olish borasida qonunchilik asoslarini bosqichma-bosqich takomillashtirish borilmoqda.

Qonun loyihasi bilan "Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infeksiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to'g'risida"gi, "Aholining sanitariya-epidemiologik osovishatligi to'g'risida"gi, "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida"gi hamda "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonunlarga qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif qilinmoqda.

Loyihaga ko'ra uzluksiz 90 kun va undan ortiq muddat davomida chet elda bo'lib qaytgan mamlakatimiz fuqarolari va O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan fuqarolari bo'lmagan shaxslar OIVga majburiy tibbiy tekshiruvdan Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan, mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun yurtmizga kirib kelayotgan chet el fuqarolari va fuqarolari bo'lmagan shaxslar hamda mamlakatimizda doimiy yashaydigan chet el fuqarolari esa o'z mablag'lari, ish beruvchining yoki qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lari hisobidan majburiy tibbiy tekshiruvdan o'tkazilishi belgilanmoqda.

Fraksiya a'zosi Noiba Inoyatova qonun loyihasi inson sog'ligi uchun xavf tug'diruvchi yuqumli kasalliklar tarqalishini oldini olish, aholi salomatligini muhofaza qilish, mehnat migratsiyasi jarayonlarida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan huquqiy mexanizmlarni shakllantirish hamda sog'ligini saqlash sohasida fuqarolar huquqlarining kafolatlarini yanada mustahkamlashga qaratilganini ta'kidladi.

Muhokamadan so'ng qonun loyihasini yanada takomillashtirish yuzasidan taklif-tavsiyalar berilib, loyiha qo'llab-quvvatlandi.

"Xalq so'zi".

Qabul – 2025 Bilimlar sinovdan o'tadigan onlar yaqin

Ota-bobolarimiz "Agar inson ilm nuri bilan o'z yo'lini yoritmasa, zulmat va nodonlik ko'chasida qoladi", deya bejiz ta'kidlamagan. Zero, ilm jamiyat ertasi, millat taqdiri va avlodlarning farovon hayotini belgilab beruvchi asosiy omildir.

Ma'lumki, yurtimizda so'nggi yillarda oliy ta'limga e'tibor qaratilib, sohada ko'plab o'zgarishlar amalga oshirilyapti. Xususan, davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan qat'iy Farmon va qarorlar ushbu tizimdagilar barcha yo'nalishni takomillashtirish va rivojlantirish yo'lida dasturlamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Ayni kunlarda ham mamlakatimizdagi oliy ta'lim dargohlarida o'qib, bilim olish va salohiyatini oshirishni niyat qilgan navqiron avlod vakillari uchun hayajonli damlar boshlandi. 5-iyun sanasidan oliy ta'lim muassasalarida 2025/2026 o'quv yili uchun imtihonlarda qatnashadigan abituriyentlar ro'yxatga olinmoqda.

– Ma'lumki, 2024/2025 o'quv yilidan boshlab davlat oliy hamda professional ta'lim muassasalariga (kasb-hunar maktabi bundan mustasno) qabul qilish bo'yicha imtihonlar "avval test, so'ng tanlov" tamoyiliga muvofiq bir vaqtda o'tkazilishi belgilangan edi, – deydi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligining Test sinovlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i Bobur Yusupov. – Joriy o'quv yiliga qabulda ham shu jarayon davom etadi. Umuman olganda, yosh avlodga o'qib, o'rganishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish, zamonaviy va sifatli ta'lim berish, imtihonlarni sifatli va shaffof holda tashkilashtirish orqali Vatanimiz ravnaqini yanada rivojlantirishni maqsad qilganmiz va bu yo'lida sobitqadam bo'lamiz.

Ma'lumotlarga ko'ra 2025/2026 o'quv yilida abituriyentlar o'z tanlovi bo'yicha test sinovi natijasida to'plagan balidan kelib chiqib dastlab oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, so'ng professional o'quv muassasalariga kirish uchun tanlovda ishtirok etadi.

Davlat oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga qabul jarayoni ikki bosqichda amalga oshirilib, birinchi bosqichda abituriyentlar har yili 5-iyundan 25-iyungacha qadar (25-iyun kuni ham) test sinovi topshirish uchun ro'yxatdan o'tadi. Faqat test sinovida qatnashsa – fanlar majmuasi, ta'lim tili va test topshirish hududini tanlaydi.

Abituriyentning alohida iqtidor talab etiladigan ta'lim yo'nalishlarida o'qish istagini bildirgan taqdirida kasbiy yo'jodiy imtihon topshiradi va bunda ta'lim tili, test topshirish hududi, alohida iqtidor talab etiladigan ta'lim yo'nalishi hamda kasbiy (ijodiy) imtihon topshiriladigan davlat oliy ta'lim muassasasi tanlanadi.

Ikkinchi bosqichda esa abituriyentlar test sinovlari to'liq yakunlanganidan so'ng 15 kun davomida oliy ta'lim muassasasi, bakalavriat ta'lim yo'nalishi, ta'lim shakli va tanlov ustuvorligini tanlashlari kerak bo'ladi.

Abituriyentning test sinovida to'plagan ballari imtihon o'tkazilgan kunning ertasiga, uning talabalikka tavsiya etilgan yoki etilmagan bo'yicha tanlov natijasi qabul jarayonining ikkinchi bosqichi to'liq yakunlangandan keyin bir hafta muddatda agentlikning rasmiy veb-saytiga joylanadi.

– Oliy ta'lim muassasasida o'qish eng katta orzularimdan biridir, – deydi abituriyent Gulzoda Rasul qizi. – Albatta, buning uchun istakning o'zi kamil qilishini yaxshi bilaman va harakatdan to'xtamayman. O'tgan yillar davomida ham maktabda, ham mustaqil o'qib, izlanib bilimlarimni mustahkamladim. Nasib etsa bu yil, albatta, talaba bo'laman.

Texnikumlarda o'qish istagini bildirgan abituriyentlar ham "avval test, so'ng tanlov" tamoyiliga muvofiq oliy ta'lim muassasalariga qabulning yakuniy natijasi e'lon qilinganidan so'ng 10 kun muddatda hujjat topshirishlari mumkin. Bunda ular texnikum, kasb va mutaxassislik hamda ta'lim shaklini tanlashlari kerak bo'ladi.

Texnikumlarning ham yakuniy tanlov natijasi bir hafta muddatda agentlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi. Ushbu yilning yangiliklaridan biri – 2025/2026 o'quv yili qabulidan boshlab fanlar majmuasida chet tili birinchi fan sifatida belgilangan ta'lim yo'nalishlariga qabul xorijiy tilni bilish darajasini belgilovchi milliy yoki xalqaro sertifikat asosida amalga oshiriladi.

O'qishga qabul qilish bo'yicha kirish imtihonlari iyul – avgust oylarida o'tkaziladi.

Rahmatjon BOBOJONOV
("Xalq so'zi").



Muhokama davomida qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida fraksiya a'zolari bergan takliflar e'tiborga olinib, hujjat matnida aks ettirilgani va u maromiga yetkazilgani alohida qayd etildi.

Fraksiya a'zolari Dilmurod Artiqov, Saydullo Azimov va boshqalar qonun loyihasining ayrim muddalarida nazarda tutilayotgan normalar bo'yicha qonun tashabbuskorlarini savollarga tutdi. Ular esa ko'tarilgan savollar yuzasidan batafsil tushuntirish berib o'tdi.

Deputatlar qonun loyihasi jamiyat ishtirokchilari huquqlari va qonuniy manfaatlarining kafolatlarini yanada mustahkamlash, jamiyat faoliyatida zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini joriy etishga xizmat qilishini inobatga olib, uni qo'llab-quvvatlandi.

Yig'ilishda ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat – muvofiqlikni baholash organlarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda mahsulotlarni o'z ixtiyori bilan chaqirib olgan tadbirkorlarga yengillik berishga qaratilgan qonun loyihasi bo'ldi.

U bilan Fuqarolik kodeksiga, "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Standartlashtirish to'g'risida"gi va "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi qonunlarga tegishli muvofiqlikni baholash organlarining mas'uliyatini oshirishga hamda texnik reglamentlar talablariga javob bermaydigan mahsulotni chaqirib olgan tadbirkorlik subyektlarini rag'batlantirishga

mamlakatimizga kelgan xorijliklarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish nazarda tutilgan.

Hozirda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun O'zbekistonga kirib kelayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shuningdek, uzluksiz 90 kun va undan ortiq muddat davomida chet elda bo'lib qaytgan 18 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan O'zbekiston fuqarolari, mamlakatimizda doimiy yashaydigan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni inson uchun xavfli bo'lgan yuqumli kasalliklarga majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazish mexanizmi mavjud emas. Shu bois ushbu qonun loyihasi bilan qator tegishli qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Xususan, unga ko'ra uzluksiz 90 kun va undan ortiq muddat davomida chet elda bo'lib qaytgan 18 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan O'zbekiston fuqarolari, O'zbekistonda doimiy yashaydigan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hamda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun mamlakatimizga kirib kelayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar majburiy ravishda OIVga tibbiy tekshiruvdan o'tkazilishi belgilanmoqda. O'zbekiston fuqarolarini OIVga majburiy tibbiy tekshiruvdan o'tkazish Davlat byudjeti, xorijliklar uchun esa o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi nazarda tutilyapti.

Muhokamada qonun loyihasi

JAHONDA TENGSIZ SPORTCHILARIMIZ MUNOSIB KUTIB OLINDI

Xabaringiz bor, Turkiyaning Bursa shahrida bo'lib o'tgan qo'l jangi bo'yicha kattalar o'rtasidagi jahon chempionatida 32 mamlakatdan tashrif buyurgan 300 nafardan ortiq sportchilar qatnashdi.

Shukuh

Biz uchun quvonarli, O'zbekiston terma jamoasi mazkur nufuzli turnirda 8 ta oltin, 3 tadan kumush va bronza medallarini qo'lga kiritib, umumjamoa hisobida birinchi o'rinni egalladi.

Bu hali hammasi emas. Gretsiyaning Lutraki shahrida o'tkazilgan VIII "Butunjahon sport o'yinlari – 2025" doirasidagi qo'l jangi musobaqalarida ham 15 ta davlat terma jamoalari o'zaro bellashdi.

Qizg'in hamda murosasiz kechgan musobaqada mamlakatimiz vakillari 13 ta oltin, 3 ta kumush va 1 ta bronza medallarini qo'lga kiritib, umumjamoa hisobida birinchi bo'lishdi. Shuningdek, turnir davomida 5 nafar xalqaro toifadagi hakamimiz bahslarni muvaffaqiyatli boshqardi.

Kuni kecha Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida ushbu ikki yirik xalqaro

musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashgan O'zbekiston terma jamoasi tantanalik kutib olindi.

Ushbu marosimda tegishli federatsiya, vazirlik va idoralar vakillari, ommaviy axborot vositalari xodimlari, sportchi hamda murabbiylarning ota-onalari, yoshlar ishtirok etdi.

Darvoqe, Butunjahon sport o'yinlari har ikki yilda bir marta o'tkaziladi. 2023-yilgi musobaqa Italiyada bo'lib, unda qo'l jangi bellashuvlari dasturga kiritilgandi. O'sha musobaqada ham O'zbekiston milliy terma jamoasi 30 dan ortiq davlatlar vakillarida 7 ta oltin va 1 ta kumush medalga ega chiqqan holda umumjamoa hisobida birinchi o'rinni qo'lga kiritgan.

"Xalq so'zi".



Markaziy Osiyoning jadal rivojlanayotgan sarmoyaviy markazi sifatida O'zbekistonning mavqei tobora mustahkamlanib bormoqda. So'nggi yillarda iqtisodiyotimizni erkinlashtirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash va investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha katta islohotlar amalga oshirildi. Mamlakatimizga bu davr ichida 90 mlrd. dollardan ko'p to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. Natijada faqat o'tgan yilning o'zida yalpi ichki mahsulot 6 foizga oshdi.



O'zbekiston iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan va investitsiyalar uchun ochiq mamlakat sifatida xalqaro hamjamiyat e'tiborini tobora ko'proq jalb etayotir. Mazkur jarayonda muhim rol o'ynaydigan asosiy platformalardan biri Toshkent xalqaro investitsiya forumidir. Shu yilning 10 - 12-iyun kunlari poytaxtimizda bo'lib o'tadigan IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi mamlakat iqtisodiyoti uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochishi kutilmoqda. Forum nafaqat investitsiyalarni jalb qilish, balki O'zbekistonda xalqaro biznes hamjamiyatiga tanitish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatini namoyish etish uchun ham muhim maydondir.

INVESTITSIYA - RIVOJLANISHNING ISHONCHLI NEGIZI

"O'zbekiston - 2030" strategiyasida belgilanganidek, 2030-yilga borib O'zbekistonning yalpi ichki mahsuloti 200 mlrd. dollarga yetishi kutilmoqda. Bunda xorijiy investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois Toshkent xalqaro investitsiya forumi mamlakatimiz uchun muhim platforma bo'lib, investorlar bilan hamkorlikni kuchaytirish va O'zbekistonning investitsiyalar uchun jozibador mamlakat sifatidagi imjini targ'ib qilishda muhim rol o'ynaydi. Forumning kun tartibi mavzulari jahon iqtisodiyotidagi kichik va o'rta biznes rivoji, sanoat klasterlari, elektron tijorat, shaharsozlik, "yashil" energetika, sun'iy intellekt kabi eng dolzarb masalalarni qamrab olgan.



va xalqaro arbitraj mexanizmlari bilan ta'minlangan. Shu bilan birga, 2019-yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan Xorijiy investorlar kengashi siyosiy va iqtisodiy elita bilan sarmoyadorlar o'rtasida tizimli muloqot imkonini yaratadi. Mazkur kengashning 3-plenar yig'ilishi aynan Xalqaro investitsiya forumi doirasida o'tkazilishi kutilmoqda.

Iqtisodiy o'sishning eng muhim jihatlari demografiya va inson kapitali munosabatlari bo'lib, ular o'sish drayverlari hisoblanadi. Aynan inson kapitaliga ega bo'lish va undan samarali foydalanish mamlakat iqtisodiyotining dunyo miqyosidagi o'rni belgilab beradi. Bugungi kunda O'zbekiston aholisining 60 foizini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil qiladi. Bu mehnat bozorida doimiy o'sishni ta'minlaydigan asosiy omildir. Talim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, "STEM" sohalariga e'tibor kuchayishi mamlakatni raqobatbardosh kadrlar bilan ta'minlashda diqqatga sazovordir.

Bundan tashqari, energetika va tabiiy resurslar uzoq muddatli istiqbolli sohalar bo'lib, uran, oltin, tabiiy gaz, mis va boshqa strategik resurslar xaritasi O'zbekistonda bo'lgan bo'ladi, mahalliy xususiy sektor uchun xalqaro bozorga chiqish va texnologik hamkorlik o'rnatish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, forum doirasida yana bir muhim anjuman - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashining uchinchi yalpi majlisi bo'lib o'tishi kutilmoqda. Majlisda yetakchi xalqaro kompaniyalar va yirik xalqaro moliya institutlari rahbarlari ishtirok etadi. Uchrashuvda hukumat hamda xorijiy investorlar ishtirokida mamlakatdagi investitsiya muhitini yaxshilash istiqbollari va O'zbekistonning investitsiya jozibadorligini oshirishga qaratilgan yangi tashabbuslar muhokama markazida bo'ladi.

Shu o'rinda institutsional asoslar va huquqiy kafolatlarga e'tibor qaratsak, Zero, sarmoyadorlar uchun eng muhim omillardan biri huquqiy kafolatlarga va mulk muhofazasidir. O'zbekistonda investitsiya faoliyati "Investitsiyalar to'g'risida"gi Qonun

Jamila BOBONAZAROVA, Oliy Majlis Senatning Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi a'zosi.

O'zbekiston iqtisodiyoti uchun YANGI IMKONIYATLAR ESHIGI

Birinchidan, xorijiy investorlar uchun O'zbekiston iqtisodiyotiga sarmoya kiritish imkoniyatlarini o'rganish, yangi loyihalarni muhokama qilish va aloqalar o'rnatish uchun qulay platforma yaratadi.

Ikkinchidan, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. Jalb etilgan investitsiyalar yangi ish o'rinlari yaratish, infratuzilmani rivojlantirish, texnologiyalarni transfer qilish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, forum xalqaro moliya institutlari, hukumatlar, biznes vakillari va ekspertlar o'rtasidagi muloqotni kuchaytiradi, hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi.

To'rtinchidan, O'zbekistonning tashqi maydondagi imjini yaxshilaydi. Forum O'zbekistonda zamonaviy, ochiq va investitsiyalar uchun qulay mamlakat sifatida taqdim etadi, bu esa xalqaro maydonda mamlakat imjini yaxshilashga xizmat qiladi. Buning isboti o'laroq, so'nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotiga 90 mlrd. dollardan ortiq xorijiy investitsiyalar jalb qilingan, bu esa o'tgan yili milliy yalpi ichki mahsulotning 6 foizga o'sishiga yordam berdi. Belgilangan rejalar amalga oshadigan bo'lsa, 2030-yilga borib O'zbekiston iqtisodiyoti 200 mlrd. dollarga yetadi va bu jarayonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muhim rol o'ynaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligidagi farovon O'zbekistonda barpo etishning asosiy strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalasi alohida o'rinni egallamoqda, bunda O'zbekiston yetakchisining integratsiyalashgan iqtisodiy siyosati, diversifikatsiyalangan ishlab chiqarish yo'nalishlari, davlat kafolatlari, erkin iqtisodiy zonalarining tashkil qilinishi, soliq imtiyozlari va sarmoya uchun qulay muhit yaratish borasidagi qat'iy siyosati natijasida respublika Markaziy Osiyodagi eng jozibador investitsiya manzillaridan biriga aylanadi.

Byudjet taqchilligini kamaytirish, ichki bank sektorini rivojlantirish, davlatga qarashli korxonalarining shartli majburiyatlarini kamaytirish, xususiy sektorning faol rolini oshirish, yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, texnik ta'limni kuchaytirish, oliy ta'lim va sanoat o'rtasidagi tafovutni qisqartirish, bilimga asoslangan iqtisodiyotni yaratishda qat'iy davom etish, iqtisodiy institutlarni mustahkamlash va boshqalar yangi O'zbekistonda farovon jamiyat qurish maqsadlariga erishishda muhim omil hisoblanadi.

Demak, investorlar bilan hamkorlik va O'zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini targ'ib qilish uchun asosiy platformalardan biri - Toshkent xalqaro investitsiya forumi hisoblanadi.

Uning ahamiyati natijalar bilan tasdiqlanadi: 2024-yilda bo'lib o'tgan uchinchi forumda dunyoning 93 mamlakatidan 2,5 mingdan ortiq ishtirokchilar yig'ildi va imzolangan kelishuvlar miqdori rekord darajaga - 26,6 mlrd. dollarga yetdi. Umuman olganda, forumning uch yillik faoliyati davomida umumiy qiymati 44 mlrd. dollar bo'lgan 357 ta investitsiya shartnomasi imzolandi. Ulardan 57 tasi allaqachon amalga oshirilgan, yana 263 tasi qurilish va loyihalashtirish bosqichida. Eng ko'p investitsiya loyihalari Saudiya Arabistoni va mamlakat bilan tuzilgan kelishuvlar hajmi 10,7 mlrd. dollarga yetdi. Xitoy (7 mlrd.), Rossiya (5,5 mlrd.), BAA (4,6 mlrd.), Turkiya (3,6 mlrd.), Germaniya (3,4 mlrd.), Fransiya (2 mlrd.) va boshqa bir qator davlatlardan ham sezilarli investitsiyalar kiritildi.

Ilk marotaba investitsiya ko'rgazmasi

IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi alohida ahamiyatga ega. Chunki uning doirasida birinchi mara investitsiya ko'rgazmasi bo'lib o'tadi. Yetakchi xususiy kompaniyalar o'z loyihalarini taqdim etadi, O'zbekiston korxonalariga esa o'z mahsulotlari va salohiyatini xalqaro investorlarga namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Forum dasturi panel muhokamalari, strategik muzokaralar va ishbilarmonlik uchrashuvlarini o'z ichiga oladi.

Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, sanoat ishlab chiqarishi, avtomobilsozlik, mashinasozlik va elektrotexnika sanoati masalalari asosiy mavzular sifatida e'lon qilingan. Suv resurslarini boshqarish, investorlarning huquqiy himoyasi, fintex, elektron tijorat, "yashil" energetika, xususiy lashtirish va investitsiya islohotlari, shuningdek, shaharsozlik va raqamlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

11-iyun kuni bo'lib o'tadigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashining yalpi majlisi markaziy voqealardan biri bo'ladi. Unda dunyoning eng yirik kompaniyalari va xalqaro moliya institutlari rahbarlari ishtirok etadi. Majlis davomida hukumat hamda investorlar o'rtasida ochiq muloqot rejalashtirilgan bo'lib, unda investitsiya muhitini yaxshilash

istiqbollari, ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish choralari va mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga qaratilgan aniq tashabbuslar muhokama qilinadi.

Forumda xalqaro moliya tashkilotlari, siyosatchilar, iqtisodchilar, yetakchi korporatsiyalar va investitsiya fondlarining top-menejerlari, shuningdek, barqaror rivojlanish, innovatsiyalar va raqamli transformatsiya sohasidagi ekspertlarning 3 mingdan ortiq vakillari ishtirok etayotgani O'zbekistonga bo'lgan qiziqish va ishonchning ortib borayotganidan dalolat beradi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan turli investitsiyaviy loyihalarning shaffofligi va mazzur yo'nalishda byurokratik yo'llardan qochilayotgani esa xorijiy investorlarga mamlakatda biznes qilish istagini oshirayotgani bor gap. Bugun dunyoda o'zaro ishonch yo'qolgan bir paytda sarmoyalarni jalb qilish oson emas. Buning uchun ularga ma'qul keladigan islohotlarni o'tkazish kerak. O'zbekiston bo'yda jiddiy qadamlar tashladi.

Birinchi forumdan keyingi uch yil

Birinchi forumdan keyingi o'tgan uch yil ichida mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada erkinlashtirish, biznesga keng yo'l ochish, bu borada qonun ustuvorligi va huquqiy kafolatlarni mustahkamlash bo'yicha tizimli islohotlar davom ettirildi.

Jumladan, mintaqamizdagi eng qulay fiskal tizimni yaratish bo'yicha katta qadamlar tashlandi. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20 foizdan 12 foizga tushirildi. Shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'ini eksportchi korxonalariga 7 kun ichida qaytarish joriy qilingani, soliq va bojxonada o'zaro hisobga olish yo'lga qo'yilgani tadbirkorlarga yangilik berdi. Bundan tashqari, xorijiy investorlarning o'z aksiyalaridan oladigan dividendlari uch yil muddatga soliqdan ozod qilindi, ular uchun foyda solig'i 20 foizdan 12 foizga tushirildi. Muhimi, soliq va bojxona qonunlariga yangi yoki o'g'irlashtiruvchi javobgarlik choralarini kiritilmasligi qat'iy belgilab qo'yildi.

Investor uchun mamlakatning investitsiya jozibadorligini baholash, uning imkoniyatlarini hisobga olish muhim masala sanaladi. Bugungi kunda O'zbekistonda qulay investitsiya muhitini muntazam ravishda yaxshilab borishni ta'minlash ustuvor vazifadir.

Bunda davlatning asosiy funksiyasi kapital jalb qilish



uchun qulay investitsiya muhitini yaratish va uning jozibadorligini oshirish bilan izohlanadi. Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etishdan manfaatdorlik har qanday davlatning o'z investitsiya siyosatini ishlab chiqishini talab etadi. Bu siyosat xorijiy investitsiyalarning o'ziga xos yo'nalishini, ularni jalb etilishini rag'batlantirish tizimini aniqlab beradi va investitsiya faoliyatining huquqiy tartibini belgilaydi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya, bu - iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz. Iqtisodiyotdagi ijobiy natijalar esa ijtimoiy sohada to'planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi. Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to'la namoyon etish choralarini ko'rish kundalik hayotimizdan joy olgan eng dolzarb masalalardan biri.

Rivojlangan mamlakatlarda to'plangan boy tajribalar, amalga oshirilgan islohotlar, qabul qilingan qarorlar va chora-tadbirlarning tub mohiyatini o'rganish, yutuq hamda kamchiliklarini ilmiy jihatdan tanqidiy tahlil qilish milliy iqtisodiyotimizning taraqqiyoti uchun har tomonlama dastak vazifasini o'taydi.

Binobarin, xalqaro maydonda mavjud bo'lgan boy tajribalar, zamonaviy tendensiyalar yildan-yilga takomillashib, o'zgarib bormoqda. Xususan, investitsiyalarni jalb etish, ularni eksport va import qilish, investorlarning manfaatlarini himoyalash, investitsion faollik va raqobatbardoshlikni oshirish bilan bog'liq masalalar shular jumlasiga kiradi. Jahonda xorijiy kapitalni jalb etish bo'yicha mamlakatlarga keskin kurash ketmoqda. Xorijiy investitsiyalar hajmi, uning sifati va qulay shartlardan foydalanish borasida rivojlangan mamlakatlarda yildan-yilga investitsion muhit

jozibadorligini ta'minlashga xizmat qiladigan innovatsion instrumentlarning turli ko'rinishlari yaratib kelinmoqda.

Natijalar barchamiz uchun muhim

O'zbekistonda qulay investitsiya iqlimi yaratilishi uchun keng harakat qilinayotir. Bu borada xorijiy investorlarga turlicha moliyaviy imtiyozlar va huquqlar berilgan, bozor infratuzilmasi shakllantirilmoqda. Bu haqda so'z ketganda, dastavval mamlakatni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini, so'ngra Taraqqiyot strategiyasini qabul qilib, uning doirasida keng ko'lami demokratik islohotlarni amalga oshirish yo'li tanlanganini ta'kidlamoqchimiz.

Xalqaro investitsiya forumining jozibali ahamiyati shundaki, yangi investitsiya loyihalarini taqdim qilishga yo'l ochadi. Forumda O'zbekistonning sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi, infratuzilma va turizm sohalaridagi yangi investitsiya loyihalari taqdim etiladi. Hukumat vakillari, mahalliy biznes vakillari va xorijiy investorlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatish, savol-javoblar almashish va hamkorlik imkoniyatlarini muhokama qilish uchun sharoit yaratadi. Forum investitsiya muhitini yaxshilash, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, huquqiy himoyani kuchaytirish va investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

Albatta, forum o'tkazishdan kutiladigan natijalar barchamiz uchun muhim. Yangi investitsiya shartnomalarining imzolanishi, yangi loyihalarning boshlanishi, ish o'rinlarining yaratilishi, infratuzilmani rivojlantirishga qo'shimcha mablag'larning jalb qilinishi, O'zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligining oshishi, xalqaro hamkorlikning mustahkamlanishi shular jumlasidandir.

IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi O'zbekiston iqtisodiyoti uchun muhim voqea bo'lib, mamlakatning rivojlanishi, investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Forum mamlakatning iqtisodiy salohiyatini namoyish etish, investorlar bilan muloqot o'rnatish hamda investitsiya muhitini yaxshilash uchun muhim platforma bo'ladi.

Nodir JUMAYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasi raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

ZAMONAVIY OROMGOH - BOLAJONLAR IXTIYORIDA

Sirdaryo tumanida O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan barpo etilgan "Sirdaryo" bolalar sog'lomlashtirish oromgohi foydalanishga topshirildi.

Yozgi ta'til - 2025

Uning ochilish marosimida so'zga chiqqanlar e'tirof etganidek, mazkur oromgoh yozgi ta'til davrida bolajonlarning maroqli dam olishi, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda muhim o'rinni tutadi. 200 o'rinda mo'ljallangan majmua Sirdaryo sohilida joylashgan

bo'lib, hududning eng so'lim va zamonaviy maskaniga aylanadi.

Oromgoh direktori Ulug'bek To'ragulovning aytishicha, bu oromgoh o'g'il-qizlarimizni nafaqat maroqli dam olish va jismonan chiniqtirish, balki ularning intellektual salohiyatini

rivojlantirish, o'zlarini qiziqqan yo'nalishlar bo'yicha bilim hamda ko'nikmalarini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Ushbu maskanda "Madaniyat va ma'rifat markazi", kitoblar xazinasiga boy Axborot-resurs markazi, eng so'nggi rusumdagi ko'rgazmali vositalar va jihozlar bilan ta'minlangan to'garak xonalari, turli tadbirlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan amfiteatr mavjud. Maxsus ishlov berilgan ega bo'lgan suzish havzasi, bolalar maydonchalari, zamonaviy

loyihalari asosida qurilgan yotoqxona binolari, oshxonalar, yuvinish xonalari ham havas qilsa arzigulik darajada ko'rkam hamda shinam. Qolaversa, keluvchi o'ta-onalar uchun muloqot ayvonchalari ham barpo etilgan.

"Sirdaryo" oromgohida joriy yil mavsumida ming nafardan ziyod o'g'il-qizlarning maroqli dam olishi belgilangan.

Ahmadali ShERNAZAROV ("Xalq so'zi")

Qiziqish bildirishga so'rov

"O'zbekistonda raqamli inkluzivlik" loyihasi

Kredit raqami: 7425-UZB

Xizmat tavsifi: "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi" MCHJ "O'zbekistonda raqamli inkluzivlik" loyihasi doirasida quyidagi xizmatlar uchun muvofiq mahalliy shaxslarni ("Individual konsultant") qiziqish bildirishga taklif qiladi:

1. UZ-DIP-417623-CS-INDV - o'quv dasturlarini monitoring qilish bo'yicha mutaxassis;
 2. UZ-DIP-417619-CS-INDV - jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis.
- Qiziqish bildirishning oxirgi muddati:** 2025-yil 25-iyun soat 18:00 ga qadar.
Batafsil ma'lumot uchun: udip@it-park.uz, 71-209-11-99, 90-929-60-49.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida "O'zarxiv" agentligi tomonidan "Elektron arxiv" ilmiy-o'quv laboratoriyasi ochildi.

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi - 229. Buyurtma G-642. 13 107 nusxada bosildi. Hajmi - 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilmaydi va mullifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terilishi hamda operator M. Begumarov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir S. Mamirov.
Musahhih S. Isломov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni - 01.10 Topshirildi - 01.15 **1 2 3 4 5 6**

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi